ASKAROV Abdurashid Murodjonovich
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasi
o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

BALOG‘AT ILMINI O‘RGANISHDA «MUḪTAṢARU-L-MA‘ĀNIY[1]» ASARINING O‘RNI

РОЛЬ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «MUḪTAṢARU-L-MA‘ĀNIY» В ИЗУЧЕНИИ НАУКИ БАЛАГАТ

THE ROLE OF «MUḪTAṢARU-L-MA‘ĀNIY» IN THE STUDY OF THE SCIENCE OF BALAGAT

Annotatsiya. *Mazkur maqolada arab tilining balog‘at fani, uning tarkibidagi ilmul bayon, ilmul maoniy va ilmul badi’ haqida, ushbu san’atlarning yuzaga kelish tarixi, hamda, ushbu ilmlarni ajdodlardan qolgan og‘zaki va yozma ma’naviy merosni o‘rganishdagi ahamiyati bayon qilindi. Shuningdek, arab tili balog‘atiga ulkan hissa qo‘shgan olimlar Jurjoniy, Zamaxshariy, Taftazoniy, Sakkokiy, Qazviniy haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *arab tili balog‘at fani, ilmul maoni, ilmul bayon, ilmul badi’, polisemiya, sinonomiya.*

Аннотация. *Эта статья исследует риторику арабского языка и его содержания: илмул баян, илмул маний ва илмул бадиъ, историю возникновения этих наук, а также их роль в изучение устного и письменного наследия предков и ученых. Статья также содержит работы великих ученых Джурджани, Замахшарий, Тафтазани, Саккаки, Казвини об арабской риторике.*

Ключевые слова: *риторика арабского языка, понимание его содержания: илмул маани, илмул баян, илмул, бади, история возникновения этих наук, полисемия, синонимия.*

Annotation. *This article explores the rhetoric of arabic language, comprehension of its contents: ilmul maani, ilmul bayan, ilmul badi, the history of the occurrence of these sciences, and its role on studying the oral and written heritage of ancestors, scholars. The article also contains the works of the great scholars Jurjani, Zamakhshary,Taftazani, Sakkoki, Qazwini on arabic rhetoric.*

Key words: *the rhetoric of arabic language, comprehension of its contents: ilmul maani, ilmul bayan, ilmul ,badi, the history of the occurrence of these sciences, polysemy, synonymy.*

KIRISH

Dunyoda Qur’on, hadis va adabiy asarlar balog‘atini tadqiq etishda Sa’duddin Taftazoniyning balog‘atga bag‘ishlab yozilgan asarlari ilmiy-nazariy manba vazifasini o‘taydi. Bugungi kunda olimlar tomonidan «Muṭawwal», «Muḫtasaru-l-ma‘āniy», «Šarḥu-l-miftāḥ» asarlari tekstologiyasi, tarkibiy tuzilishi, mazkur asarlardagi balog‘at qoidalari hamda terminlarining qo‘llanilishi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar Taftazoniyning balog‘at ilmining nazariy qoidalarini ishlab chiqishda o‘z uslubiga ega ekanini ko‘rsatadi. Asarlarda itnob, istiora, muhassanat badi’iyya, tashbih, kinoya, qasr, iltifot masalalarida ilgari surilgan nazariy qarashlar sohada olib borilayotgan tadqiqotlar salmog‘ini oshirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Sa’duddin Taftazoniyning balog‘at ilmiga oid «Muḫtaṣaru-l-ma‘āniy» (مختصر المعاني) nomli asari bo‘lib, u Qazviniyning «Talḫīṣu-l-miftāḥ» asariga yozilgan ikkinchi sharhidir. Asar muqaddimasidan Taftazoniy mazkur asarni o‘zi maxsus nomlamagani ma’lum bo‘ladi. Keyinchalik asar «Aš-šarḥu-ṣ-ṣağīr» nomi bilan ham atalgan. Bu asarga Subki Nazir «Havāši-š-šarḥi-ṣ-ṣağīr» nomli xoshiya yozgan. Sa’duddin Taftazoniy «Muḫtaṣaru-l-ma‘āniy» asarini 756/1355 sanada G‘ijduvonda nihoyasiga yetkazgan va uni sulton Abu Muzaffar Mahmud Jonibekxonga taqdim qilgan [25:236].

Asarning chop etilgan nusxalari ko‘p bo‘lib, ulardan biri «Šurūḥ-t-Talḫīṣ» nomli majmuada chop etilgan. Mazkur asar Muhammad Muhyiddin Abdulhamid tomonidan «Muḫtaṣaru-l-ma‘āniy» nomi bilan qayta nashr etilgan. Uning har bir faslida mashqlar keltirilgan. Ushbu nashr oldingilaridan aniqligi bilan ajralib turadi.

[1] Transkripsiya uchun DIN (qisqartma.) – nem. Deutsches Institut für Normung e.v. (Nemis standartlashtirish instituti) tomonidan qabul qilingan transkripsiya belgilari olindi.

ISSN 2181-9572

Abdulmuta'al So'idiy ushbu asarni «Šarḥu-l-muḫtaṣar» nomi bilan nashr qilgan. U Sa'duddin Taftazoniyning matn iborasini bayon qiluvchi hoshiyalar va sharhlar keltirgan.

Sa'duddin Taftazoniy «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asarini yozish sabablaridan biri «Muṭawwal» da o'zi sharhini uzaytirib yuborgan ayrim ilmiy masalalarni qisqa ko'rinishda ochib berish va uni o'quvchilar uchun yanada tushunishga oson bo'lishi uchun ixchamlashtirgan. Taftazoniy asarda iboralar sharhi, balog'atga oid qo'shimcha fikrlar, ayrim qarashlarga e'tiroz va ularning yechimiga alohida bo'limlar ajratgan.

Sa'duddin Taftazoniy «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asarining muqaddimasida mazkur asarni yozish borasida: Men «Talḫīṣu-l-Miftāh» da kelgan ma'lumotlarni sharhladim. Unga nozik fikrlar chizib bergan satrlar nafisligi bilan bezak berdim. So'ng ko'plab fozillar va zakovatli kishilarni ko'rdim. Ular mendan uni muxtasar qilish, ma'nolari bayonini qisqartirish, pardalarini ochish tomon himmatimni sarf qilishimni so'rashdi. Buning sababi ular tahsil oluvchilarning asar nurlarini yaxshilab o'rganishdan himmatlari kamaygani, uning yashirin sirlarini ochishga jur'atlari pasayganiga guvoh bo'lishgan edi. Shunday qilib asarni ikkinchi marta ularning taklifiga ko'ra sharhlash va birinchisini qaytadan muxtasar qilish uchun e'tiborni jilovlash tomon turdim", deb balog'at ilmiga oid ikkinchi asarining yozilish sababini keltirib o'tgan [2:23].

«Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asari bilan «Muṭawwal» o'rtasidagi farqlardan biri ushbu ikki asarni qiyoslagan tadqiqotchi Sa'duddin Taftazoniy «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asarida «Muṭawwal»da keltirgan ko'p bahslarni, Qazviniyga bildirgan ayrim e'tirozlarni, «Kaššāf» va boshqa asrlardan keltirgan iqtiboslarni qisqartirgani, «Muṭawwal»da Qazviyniy so'zini dalillash yoki to'ldirish maqsadida ulamolardan keltirgan ko'p misollardan voz kechib, ularning mazmuniga ishora qilish bilan cheklanganini ko'rish mumkin [1:34].

Sa'duddin Taftazoniy «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy»da Sakkokiyning «Miftāḥ» va Qazviniyning «Iẓāḥ» asarlaridagi balog'at ilmiga oid ba'zi chigalliklarni ochishda o'zining «Muṭawwal» asarida keltirgan ma'lumotlarni, ko'p hollarda savol-javoblarni qisqartirgan. Lekin o'zidan oldingi «Talḫīṣ» asarini sharh qilgan olimlarning xatolariga e'tibor qaratib, «Muṭawwal»da ularga bildirgan munosabatlarini «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asarida qoldirgan. Chunki, Sa'duddin Taftazoniyning «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asari matn sharhiga bevosita bog'langan asardir. Shu bilan birga, Taftazoniy ushbu asarda ba'zi fikr va mulohazalarni qisqartirgan. «Muṭawwal»da mufassal bayon qilgan ba'zi ma'lumotlarni qisqartirgan va unga ishora berish bilan kifoyalangan.

Sa'duddin Taftazoniy «Muṭawwal» asarida nomlarini keltirgan olimlarning ba'zi so'zlarni ham qisqartirgan.

Sa'duddin Taftazoniy o'zi sharh qilayotgan matn muallifi bildirgan fikrlarni va u keltirgan misollarini tushunish borasida balog'atga oid ikkinchi sharh asari «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy»da birinchi sharh asari hisoblangan «Muṭawwal»da keltirilmagan balog'atga oid ba'zi ilmiy tahlillarni va bildirilmagan ilmiy qarashlarni, shuningdek, avval keltirmagan olimlarning fikrlarini keltirgan va ularga munosabat bildirgan [1:86].

Sa'duddin Taftazoniy shuningdek, avval qat'iy fikr aytmagan bir qancha masalalarga oid o'z fikrlarini ochiq bildirgan. Oldin faqat laqablarini zikr qilish bilan kifoyalangan ba'zi balog'at olimlarining ismini ham to'liq keltirgan.

Nisbat berilishi noma'lum bo'lgan ba'zi ilmiy qarashlar egasiga nisbat bergan. «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asarida shaxsiy jihatlarini ochib beradigan qissalar va ajoyib voqealar ham qo'shimcha qilingan.

Sa'duddin Taftazoniy «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asarida keltirgan qo'shimchalariga Taftazoniyning fors adabiyoti va balog'ati bilan chuqur tanishib chiqqani ham katta ta'sir qilgan. «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asarida arablar balog'ati bilan forslar balog'atini solishtirishga harakat qilgan.

Sa'duddin Taftazoniy «Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asarida «Muṭawwal»dan farqli ravishda yangicha sharh uslubidan borgan. Bu avvalo tadqiqotchi uchun matnni chuqur tushunishga, ikkinchidan Sa'duddin Taftazoniyning ba'zi fikrlaridan ko'zda tutilgan maqsadni ham tushunishga yordam beradi.

«Muḫtaṣaru-l-ma'āniy» asariga bir qancha hoshiya va izohlar yozilgan. Asar hijriy 1271/1854-yilda Dusuqiyning xoshiyasi bilan Qohiradagi Buloq matbaasida nashr etiladi [16:186].

Taftazoniyning «Muḫtaṣaru-l-ma‘āniy» asari balog‘at va fasohat, balog‘at darajalari va balog‘atning ma’oniy, bayon, badi’ tarmoqlarining xususiyatlariga doir nazariy ma’lumotlar bilan boshlangan.

Asarning bu qismi quyidagi mavzularni o‘z ichiga oladi: sharhlovchining muqaddimasi (مقدمة الشارح), kirish so‘zi (كلمة الافتتاح), balog‘atning uchinchi tarmog‘ining qo‘shilishi haqida (وجه ترجيه الفن الثالث), «Miftāḥ»ning yozilishi haqida (وجه تأليف المفتاح), muallifning uslubi (منهج المصنف), balog‘at va fasohat bo‘limlari (أقسام الفصاحة والبلاغة), fasohat haqida (بيان الفصاحة), gap fasohati haqida (الفصاحة في الكلام), notiqning fasohati (الفصاحة في المتكلم), gapdagi balog‘at (البلاغة في الكلام), gap qadrining ko‘tarilishi (ارتفاع شأن الكلام), balog‘atning darajalari (مراتب البلاغة), notiqning balog‘ati (البلاغة في المتكلم), gapdagi balog‘atning manbai (مرجع البلاغة في الكلام), balog‘atning uch tarmog‘ining xususiyatlari (وجه انحصار المقصور في الفنون الثلاثة) [2:230].

Taftazoniy balog‘atning ma’oniy, bayon va badi’ ilmlari haqida o‘zigacha fikr bildirgan olimlar qarashlariga asosli ilmiy munosabatlarni bayon etgan. Quyida Taftazoniyning balog‘at ilmiga oid asarlarining mundarijasi keltiriladi:

Ma’oniy ilmi. Taftazoniy «Muḫtaṣaru-l-ma‘āniy» asarida ma’oniy ilmini quyidagicha ta’riflaydi:

وهو علم يعرف به أحوال اللفظ العربي التي بها يطابق اللفظ مقتضى الحال (أي ملكة يقتدر بها على إدراكات جزئية)

Bu – arab tilidagi gapning vaziyat talab qilgan holatga mos keladigan ko‘rinishlarini va jihatlari (ya’ni nozik tushunchalarni idrok eta olish malakasi va ko‘nikmasi) o‘rganiladigan ilm.

Taftazoniy ma’oniy ilmini quyidagi mavzularga bo‘lib tahlil qilgan: haqiqat va yolg‘on tushunchalari haqida (تفسير الصدق والكذب), bir so‘zni boshqa so‘zga bog‘lab darak gaplar tuzish haqida (أحوال الإسناد الخبري), vaziyat taqozosiga teskari bo‘lgan gap aytish (إخراج الكلام على خلاف مقتضى الحال), haqiqiy ma’noda bir so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash (الإسناد الحقيقي), majoziy ma’noda bir so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash (الإسناد المجازي), aqliy majoz haqida (أقسام المجاز العقلي), Qur’ondagi majoz (المجاز في القرآن), aqliy majozdagi qarina-aniqlashtiruvchi so‘z haqida (وجوه القرينة للمجاز العقلي), ega haqida (أحوال المسند إليه), gapda egani tushurib qoldirilishi (حذف المسند إليه), eganing gapda zikr etilishi (ذكر المسند إليه), gapda egani olmosh orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالإضمار), gapda egani atoqli ot orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالعلمية), gapda egani nisbiy olmosh orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالموصولية), gapda egani ko‘rsatish olmoshi orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالإشارة), gapda egani «ال» aniqlik artikli olgan so‘z orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه باللام), gapda egani qaratqich kelishigili birikma orqali aniq ifoda etish (تعريف المسند إليه بالإضافة), gapda egani noaniq holatdagi so‘z orqali ifoda etish (تنكير المسند إليه), gapda egadan boshqa bo‘laklarni noaniq holda ifoda etish (تنكير غير المسند إليه), ega haqida (وصف المسند إليه), gapda egani ta’kidlab keltirish (توكيد المسند إليه), gapda egani izohlovchi bilan birgalikda ifoda etilishi (بيان المسند إليه بعطف البيان), eganing izohlovchisi haqida (الإبدال من المسند إليه), eganing uyushib kelishi haqida (العطف على المسند إليه), eganing ajratuvchi olmosh bilan kelishi (تعقيب المسند إليه بضمير الفصل), eganing gapda boshqa bo‘laklardan avval kelishi haqida (تقديم المسند إليه), men bu borada nima deyman deb nomlangan bob (باب ما أنا قلت), eganing gapda boshqa bo‘laklardan keyin kelishi haqida (تأخير المسند إليه), nutqda e’tiborni o‘ziga tortish (الالتفات), nutqda e’tiborni go‘zal tarzda o‘ziga tortish yo‘llari haqida (وجه حسن الالتفات), nutqda e’tiborni hikmatli uslub orqali o‘ziga tortish (الأسلوب الحكيم), fe’lning o‘tgan zamo nshakli bila nkelasi zamonning ifodaetilishi (التعبير عن المستقبل بلفظ الماضي), ifodalamoqchi bo‘lgan fikrning teskarisini aytish (القلب), kesim haqida (أحوال المسند), kesimni tushirib qoldirish haqida (ترك المسند), kesimni gapda keltirish (ذكر المسند), kesimni yakka holda keltirish(إفراد المسند), musnad-kesimning fe’l orqali ifodalanishi (كون المسند فعلا), kesimning ism orqali ifodalanishi (كون المسند اسما), fe’lni to‘diruvchi bilan bog‘ash (تقييد الفعل بمفعول و نحوه), musnadni qayd qilmaslik (ترك تقييد المسند), fe’lni shartga bog‘lash (تقييد الفعل بالشرط), shart yuklamalari haqida (بيان أدوات الشرط), agar, gar, …da (إذا وإن ولو), tag‘lib (التغليب), kesimning noaniq holda kelishi (تنكير المسند), kesimni xoslash (تخصيص المسند), kesimning aniq holda kelishi (تعريف المسند), kesimni gap orqali ifodalanishi (كون المسند جملة), kesimni (egadan) keyin keltirish (تأخير المسند), kesimni (egadan) avval keltirish(تقديم المسند), fe’l bilan bog‘liq holatlar (أحوال متعلقات الفعل), fe’l bilan to‘diruvchni birga keltirmaslik (عدم ذكر المفعول مع الفعل), to‘ldiruvchining tushurib qoldirish yo‘llari

ISSN 2181-9572

iyjoz-qisqa qilish (الإيجاز), iyjozning turlari (تقسيم الإيجاز), itnob-cho‘zish (الإطناب), tavshe’ (التوشيع), takrir (التكرير), iyg‘ol (الإيغال), tazlil (التذليل), takmil (التكميل), tatmim (التتميم), e’tiroz (2:289) [الاعتراض].

Taftazoniy ma’oniy ilmiga boshqa olimlar kabi isnodning darak gapdagi keladigan holatlari (أحوال الإسناد الخبري), musnad ilayhning holatlari (أحوال المسند إليه), musnadning holatlari (أحوال المسند), fe’lga bog‘langan gap bo‘laklarining holatlari (أحوال متعلقات الفعل), qasr (القصر), insho (الإنشاء), fasl va vasl (الفصل و الوصل) va iyjoz, itnob(الإطناب), musovot (الإيجاز والإطناب والمساواة) bo‘limlarni keltiradi.

Taftazoniy bayon ilmiga quyidagi ta’rifni keltiradi:

وهو علم يعرف به إيراد المعنى الواحد بطرق مختلفة في وضوح الدلالة عليه

Bu – bir ma’noni turli xil yo‘llar orqali aniq yoritib berishni o‘rganiladigan ilmdir.

Taftazoniy asarlarida bayon ilmi mundarijasi quyidagicha: dalolat-ma’no ifodalashga berilgan ta’rif va uning tasnifi (تعريف الدلالة وتقسينه), majoz va kinoyaning ta’rifi (تعريف المجاز والكناية), tashbeh (التشبيه), tashbehning ruknlari (أركان التشبيه), tashbehning ikki tomoni (طرفا التشبيه), tashbehda o‘xshatilayotgan jihat (وجه التشبيه), tashbehdan maqsad (الغرض من التشبيه), ikkala tomonni hisobga olgan holdagi tashbeh turlari (أقسام التشبيه باعتبار الطرفين), o‘xshatilayotgan jihatko‘ra tashbehning turlari (أقسام التشبيه باعتبار وجه التشبيه), o‘xshatish vositasiga ko‘ra tashbihning turlari (أقسام التشبيه باعتبار الأداة), tashbehning maqsadga ko‘ra turlari (أقسام التشبيه باعتبار الغرض), tashbehning kuchli va zaifligiga ko‘ra turlariga doir xulosa (خاتمة في تقسيم التشبيه بحسب القوة والضعف), haqiqat va majoz (الحقيقة والمجاز), haqiqatning ta’rifi (تعريف الحقيقة), majozning ta’rifi va turlari (تعريف المجاز وتقسيمه), haqiqat va majozning turlari (تقسيم الحقيقة والمجاز), mursal majoz va istiora (المجاز المرسل والاستعارة), mursalning turlari (تقسيم المرسل), istiora va uning turlari (الاستعارة وتقسيمه), ikkala tomonga ko‘ra istioraning turlari (أقسام الاستعارة باعتبار الطرفين), umumiy jihatga ko‘ra istioraning boshqa bir turi (تقسيم آخر للاستعارة باعتبار الجامع), istiora qilinayotgan so‘zga ko‘ra istioraning yana bir turi (تقسيم آخر للاستعارة باعتبار اللفظ المستعار), murakkab majoz (المجاز المركب), kinoyali istiora va xayoliy istiora haqida (في بيان الاستعارة بالكناية والاستعارة التخييلية), majoz haqiqati haqida bahs (مباحث في حقيقة المجاز), kinoya va majoz orasidagi farq (الفرق بين وجوه حذف المفعول), to‘diruvchining (fe’ldan) oldin keltirish holatlari (وجوه تقديم المفعول), ba’zi ikkinchi darajali bo‘laklarni oldin keltirish (تقديم بعض المعمولات على بعض), qasr (القصر), qasr-cheklovning ta’rifi va uning qismlari (تعريف القصروتقسيمه), qasrning ifrod deb nomlangan turi (قصر إفراد), qasrning qalb deb nomlangan turi (قصر قلب), qasrning ta’yin deb nomlangan turi (قصر تعيين), qasrning ifrod turining sharti (شرط قصر الإفراد), qasrning qalb turining sharti (شرط قصر القلب), qasrning yo‘llari (طرق القصر), qasrning uyushiq bo‘lak bilan kelishi (القصر بالعطف), qasrning bo‘lishsizlik shakli va istisno bilan kelishi (القصر بالنفي والاستثناء), qasrning إنما yuklamasi bilan kelishi (القصر بـ «إنما»), qasrning oldin keltirilishi (القصر بالتقديم), bo‘lishsizlikning ko‘pikda إنما bilan kelishi (جمع النفي بـ «إنما»), bo‘lishsizlik va istisnoning noaniq holda keltirish (استعمال النفي والاتثناء في المجهول), aniq holda keltiriladigan إنما yuklamasini majhul o‘rnida keltirish (استعمال «إنما» في تنزيل المعلوم منزلة المجهول), uyushiq bo‘lakka bog‘langan إنما yuklamasining xususiyatlari (مزية «إنما» على العطف), إنما yuklamasini ta‘riz yo‘lida keltirish (استعمال «إنما» في التعريض), qasr bilan cheklanganso‘zning istisno yuklamasi bilan kelishi (أداة الاستثناء على المقصور), ko‘plikni qasr bilan ifodalashning bir turi (وجه إفادة الجميع بالقصر), insho (الإنشاء), so‘roq gap (الاستفهام), so‘roq gapning أ - hamza bilan kelishi (الاستفهام بالهمزة), so‘roq gapning هل bilan kelishi (الاستفهام بـ «هل»), so‘roq gapning «هل» ning turlari (أقسام «هل»), so‘roq gapning boshqa yuklamalar bilan ifodalanishi (الاستفهام بباقي الألفاظ), so‘roq yuklamalarining so‘roqdan boshqa maqsadlar uchun qo‘llanilishi (اسعمال الكلمات الاستفهامية في غير الاستفهام), buyruq fe’li (الأمر), inkorni ifodalash (النهي), undalma (النداء), ajratish va qo‘shish (الفصل والوصل), fasl va vaslning o‘rinlari (بيان الفصل والوصل و مواردها), vasl-ulashni taqozo qilgan o‘rinlar (الأحوال المقتضية للوصل), vaslda ikkita jumla o‘rtasini jamlovchining turlari (تقسيم الجامع بين الجملتين), taznib-ilova keltirish (تذنيب), hol ergash gapda olmosh va [waw] – و ni qo‘llash yoki ularni tushirib qoldirish (إيراد الضمير والواو وتركهما في الجملة الحالية), hozirgi zamondagi bo‘lishli fe‘lning «و» bog‘lovchisi bilan kelishi (امتناع الواو على المضارعة المثبتة), hozirgi zamondagi bo‘lishsiz fe‘lning [waw] – و bog‘lovchisi bilan kelishi yoki kelmasligi (جواز إتيان الواو وتركه في المضارع المنفي), ismiy jumlani orasada kelgan [waw] – و bog‘lovchisi haqida (الاختلاف في الواو حين أحال جملة اسمية), musovot-tenglash (المساواة),

الكناية والمجاز), kinoyaning turlari (تقسيم الكناية), imo (الإيماء), belgi, ishora (3:235] (الإشارة].

Taftazoniy «Muḫtaṣaru-l-ma‘āniy» asarida badi’ ilmiga quyidagi ta’rifni keltiradi:

و هو علم يُعرف به وجوه تحسين الكلام بعد رعاية المطابقة ووضوح الدلالة.

Gapdagi ma’noning ravshanligini hamda vaziyatga muvofiqligini ta’minlangandan so‘ng nutqni go‘zallashtirish jihatlari o‘rganiladigan ilmdir.

Badi’ ilmini Taftazoniy quyidagicha tahlil qilgan: nutqni go‘zallashtirish usullari (وجوه تحسين الكلام), ma’naviy san’atlar (المحسنات المعنوية), mutobaqa (المطابقة), nazirga rioya qilish (مراعاة النظير), irsod (الإرصاد), mushokala (المشاكلة), muzovaja (المزاوجة), aks (العكس), ruju’ (الرجوع), tavriya (التورية), istixdom (الاستخدام), laff va nashr (اللف والنشر), ko‘plik (الجمع), tafriq (التفريق), taqsim (التقسيم), jamning tafriq bilan kelishi (الجمع مع التفريق), jamning taqsim bilan kelishi (الجمع مع التقسيم), tajrid (التجريد), maqbul mubolag‘a (المبالغة المقبولة), husnu ta’dil (حسن التعليل), tafri’ (التفريع), madhni yomonlashga o‘xshatib ta’kidlash (تأكيد المدح بما يشبه الذم), zamni madhga o‘xshatib ta’kidlash (تأكيد الذم بما يشبه المدح), istitbo‘ (الاستتباع), idmoj (الإدماج), tavjih (التوجيه), jiddiylikni ifodalovchi hazl (الهزل الذي يراد به الجد), xabardor kishining o‘zini bilmaslikka olishi (تجاهل العارف), itrod (الإطراد), lafziy san’atlar (المحسنات اللفظية), jinos (الجناس), avvaldan ojizlikni to‘sish (رد العجز على الصدر), saj’ (السجع), muvozana (الموازنة), qalb (القلب), tashri’ (التشريع), lozim bo‘lmagan narsaning lozim holda kelishi (لزوم ما لا يلزم) 2:316] (لا يلزم].

Bu ilm san’at hosil qilishdagi xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi. Birinchisi, so‘zning tovush jihatini e’tiborga olib hosil qilinadigan san’atlar bo‘lib, ular «lafziy go‘zalliklar» (al-muḥassanātu-l-lafẓiyya – المحسنات اللفظية) deb ataladi. Ikkinchisi, so‘zning ma’no jihatiga ko‘ra hosil qilinadigan ma’noviy san’atlar bo‘lib, ular «ma’no go‘zalliklari» (al-muḥassanātu-l-ma’nāviyya – المحسنات المعنوية) deb nomlanadi.

«Muḫtaṣaru-l-ma‘āniy»ning qo‘lyozma nusxalari:

O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadigan qo‘lyozmalar:

13228/1 raqam ostida saqlangan, o‘lchami 26x17,5 mm., satri 17 bo‘lgan nusxa, 230 (1b–293a) varaq. Sharq qog‘oziga 1292/1875-yilda nasx xatida ko‘chirilgan.

10683/7 raqam ostida saqlangan, o‘lchami 2x17mm., satri 24 bo‘lgan nusxa, 107 (92b–199b) varaq. Sharq qog‘oziga 820/1417-yilda nasx xatida ko‘chirilgan.

6021 raqam ostida saqlangan, o‘lchami 26,5x17 mm., satri 19 bo‘lgan nusxa, 155 varaq. Sharq qog‘oziga 1248/1832-yilda nasx xatida ko‘chirilgan.

4121/1 raqam ostida saqlangan, o‘lchami 22x12,5 mm., satri 23 bo‘lgan nusxa, 156 (1b–156b) varaq. Sharq qog‘oziga 958/1551-yilda nasx xatida ko‘chirilgan.

7223/1 raqam ostida saqlangan, o‘lchami 21,5x16 mm., satri 17 bo‘lgan nusxa, 309 (1b–309b) varaq. Sharq qog‘oziga 1308/1890-yilda nasx xatida ko‘chirilgan. Mazkur nusxa O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi.

229 raqam ostida saqlangan, o‘lchami 13,5x22 mm., satri 18 bo‘lgan nusxa, 201 varaq. Sharq qog‘oziga nasx xatida ko‘chirilgan. Mazkur nuxsa O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Manbalar xazinasi.

392 raqam ostida saqlangan, o‘lchami 14x23 mm., satri 18 bo‘lgan nusxa, 38 varaq. Sharq qog‘oziga nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Mazkur nuxsa O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanadi.

Taftazoniy «ma’no go‘zalliklari»ni ifodalovchi (المحسنات اللمعنوية) san’atlarni gapda ifodalanishi kerak bo‘lgan asosiy jihat bo‘lganligi sababli birinchi keltiradi.

XULOSA

Sa’duddin Taftazoniy balog‘atga oid asarlarni sharh qilishda aniqlikka juda katta e’tibor qaratgan va o‘zi sharh qilayotgan asarlarning mualliflari tomonidan yozilgan qo‘lyozma nusxalaridan foydalangan. U balog‘atga oid uchinchi asari «Sharhu-l-miftah» ning ba’zi o‘rinlarida avval yozgan ikki asari «Muṭawwal» va «Muḫtaṣaru-l-ma‘āniy» da qo‘llagan uslubidan o‘zgacha yondashgan. Unda ilmiy tahlillarni va misollarni ko‘paytirgan. Unda balog‘atga oid juda nozik masalalarni ham keltirgan. Sa’duddin Taftazoniy o‘zining ikkinchi sharhi «Muḫtaṣaru-l-ma‘āniy» da avval yozgan sharh asari «Muṭawwal» ni muxtasar

qilish bilan birga unga balog‘atga oid qo‘shimcha yanliliklar ham kiritgan va ularni rivojlantirgan. Taftazoniyning balog‘atga oid asarlari mundarijasi, har uchala asarda bir xil. Mundarija bir-birini takrorlasa-da, asosiy o‘zgarishlar asar matnida o‘z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. سعد الدين التفتازانى. الشرح المطول لتلخيص المفتاح. – بيروت: دار الكتب العلمية، 3102. – 297 ص.
2. سعد الدين التفتازانى. مختصار المعانى شرخ كتاب تلخيص المفتاح. – اسطنبول: دار الشفاء، 7102. – 407 ص.
3. سعد الدين التفتازاني. شرح مفتاح العلوم. – دمشق: دار تقوى الشام، 0202.– 397 ص.

4. ابن بحر الجاحظ. كتاب البيان والتبيين. – مكتبة النور، 6002. – 444 ص.
5. الجرجاني. دلائل الإعجاز في المعاني. – القاهرة: المكتبة التوفيقية، 5002. – 617 ص.
6. أبو يعقوب السكاكي. مفتاح العلوم \ تحقيق د.عبد الحميد الهنداوي؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-المعاني-البديع. – القاهرة، 9991. – 935 ص.
7. جلال الدين القزويني. الإيضاح في علوم البلاغة المعاني والبيان والبديع. – لبنان: دار الكتب العلمية، 3002. – 514 ص.
8. بكري شيخ أمين. البلاغة العربية في ثوبها الجديد. – بيروت، 4891. – 891 ص.
9. عبد العزيز عتيق. علم البديع. – بيروت: دار النهضة العربية، 5102. – 842 ص.
01. بدوي طبانة. معجم البلاغة العربية في مجلدين. الطبعة الثالثة. –جدة: دار المنارة، 8891. – 187 ص.
11. أبو يعقوب السكاكي. مفتاح العلوم \ تحقيق د.عبد الحميد الهنداوي؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-المعاني-البديع. – القاهرة، 9991. – 935 ص.
12. أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبديع. – بيروت: دار الإحياء التراث العربي، 8002. – 003 ص.
13. الفناري. حاشية على المطول. – بيروت: دار كتب، 7002. – 464 ص.
14. بكري شيخ أمين. البلاغة العربية في ثوبها الجديد. – بيروت، 4891. – 891 ص.
15. جلال الدين السيوطى. بغية الوعاة في طبقات اللغويين والنحاة. – ج. 2. – مصر، 7691. – 006 ص.
16. شوقي ضيف. البلاغة تطور وتاريخ. – بيروت، 8002. – 883 ص.
17. عبد العزيز عتيق. علم البيان. – بيروت: دار النهضة العربية، 689م. – 622 ص.؛
18. عبد العزيز عتيق. علم البديع. – بيروت: دار النهضة العربية، 5102. – 842 ص.
19. عبد العزيز عتيق. علم المعاني. – بيروت: دار النهضة العربية، 5891. –622 ص.
20. عبد القاهر الجرجاني. أسرار البلاغة. – جدة: دار المدني، 1991. – 845 ص.
21. فضل حسن عباس. البلاغة – فنونها وأفنانها: علم المعاني. – عمان: دار الفرقان، 7991. الطبعة الرابعة. – 616 ص.
22. صالح ساسه. المنجد في الإعراب والقواعد والبلاغة والعروض. – دار الرائد الطباعة والنشر، 7002. – 004 ص.
23. ابن وهب. البرهان في وجوه البيان. – مصر: مكتبة الشباب، 7102. – 914 ص.